



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH ASOSLARI

Dushaeva Nodira Rustambekovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonlari va ularni xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyatini ilmiy asoslar bilan taqqoslangan holda tahlil qilingan.*

Tayanch so'zlar: *ma'naviy-axloq, tarbiya, ta'lim, xalq og'zaki ijodi, ertak, maktabgacha ta'lim, oila.*

Kirish: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy kamolotida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'r ganiladigan topishmoq, topishmoqli ertaklarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning samarali shakl va metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi yoritib beriladi. Topishmoq azaldan xalq pedagogikasining oliy namunasi hisoblanadi¹. Zero, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri ham topishmoq hisoblanadi. Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, hammavaqt real zaminga asoslanadi². Unda atrofimizni o'rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilari, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go'zal obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi. Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi.

Ular tarbiyalanuvchilarni ko'proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi. MTM (maktabgacha ta'lim muassasasi)da maktabgacha yosh davrida bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish bolalarni faqatgina o'sha aytilayotgan tpishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o'rtasida bir- biriga mehr, do'stlik, o'rtoqlik, hamjihat bo'lib yashash kerakligi haqida fikrlar bildiriladi³.

TAQDIQOT VA NATIJALAR

MTT (maktabgacha ta'lim tizimi)da xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda MTT

¹ Rasulx'jaeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma - T.: "Ilm-Ziyo Zakovat" 2020.

² G.Tulenova, X.Xo'jayev P.Xo'jayeva. "Jismoniy tarnazariyasi va metodikasi". T.: Ilm ziyo. 2022

³ Xasanboyeva O.U. va boshq - Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - O"quv qo'llanma - T.: Ilm ziyo. 2022




pedagog-tarbiyachilar tomonidan bolalarni ma’naviy -axloqiy tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo‘nalishiga ko‘ra rejalarashtirish va tashkil qilish funksivalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

--maqsadi, vazifasi va shakliga ko‘ra turli mashg‘ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish;

-- modellashtirish, ya'ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash bo'vicha vazifalarni oldindan belgilash;

---yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko‘ra tarbiyalanuvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini nazorat qilish, ibrat, namuna ko‘rsatish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida rag’batlantirish⁴.

MTTda bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda sanab o‘tilgan pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash uchun pedagogik yondashuvni tatbiq qilish zarur (1-chizma).



1-chizma. MTT va oilada xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jaravonlarni takomillashtirish mexanizmi⁵

Ushbu modelning amaliyotga tatbiq etilishi xalq og‘zaki ijodi namunalarini vositasida maktabgacha yoshdagi bolalalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishdagi ustuvor masalalarni ijobiy hal etishga olib keladi deb izohlagan o‘z tadqiqot ishida D.A.Abdurahimova Xalq og‘zaki ijodi namunalarini vositasida maktabgacha yoshdagi bolalalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda falsafiy,

⁴ Xasanboeva O. va boshq - Oila pedagogikasi. O., quv qo, llanma - T.: "Aloqachi", 2017 y.

⁵ O. Yusupov, I. Mirzaeva, A. Mukhamedaminov, D. Shigabutdinova, S. Nazarov, U. Muradov, T. Toshpulatov, Sh. Fayziev, Sh. Fayziev. Phraseological Units with Colour Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People. LINGUISTICA ANTVERPIENSIA, 2021. P. 719-731



milliy ma'naviy, psixologik, pedagogik yondashuvning mazmun va mohiyatini anglashga erishiladi, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ijtimoiy omillarning ta'sirini hisobga olish hamda ma'naviy - axloqiy tarbiyani o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi namunalariga tayanish zarur⁶. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda oila, mahalla, MTT hamkorligi mexanizmini hayotga tatbiq etish o'zining ijobiy samarasini berdi.

Xulosa:

Demak tarbiyalanuvchi shaxsining individualligi va noyobligini hisobga olgan holda ota-onalar va keng jamoatchilikning yoshlarni xalq og'zaki ijodi pedagogik tizim mtt dagi mashg'ulotlar (ta'lim-tarbiya jarayonlari) mtt, oila va mahalla hamkorligi tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonlarini tashkil etishga pedagogik yondashuv ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid turli tadbirlar pedagogik amaliyot uzliksiz malaka oshirish jarayonlari pedagogik tajriba-sinov jarayonlari samaradorlik namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun hissa qo'shishga shaxsan mas'ul ekanligini, ota-onalarning o'zлari milliy qadriyatlarimizning bosh bo'g'ini xisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari alla, ertak, maqol, topishmoqlarni bilishi, bu borada ularning xalq og'zaki ijodi namunalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini yanada takomillashtirish, yosh ota-onalarni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiluvchi uslubiy qo'llanmalar, risolalar va bukletlarni chop etish va tarqatish orqali yosh oilalarga oilaviy munosabatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi bilimini oshirishda ko'maklashish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rib chiqdik⁷.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Rasulx'jaeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma - T.: "Ilm-Ziyo Zakovat" 2020.
- 2 G.Tulenova, X.Xo'jayev P.Xo'jayeva. "Jismoniy tarnazariyasi va metodikasi". T.: Ilm ziyo. 2022
- 3 Xasanboyeva O.U. va boshq - Maktabgacha ta"lim pedagogikasi. - O"quv qo'llanma - T.: Ilm ziyo. 2022
- 4 Xasanboeva O. va boshq - Oila pedagogikasi. O,,quv qo,,llanma - T.: "Aloqachi", 2017 y
- 5 O.Yusupov, I.Mirzaeva, A.Mukhamedaminov, D.Shigabutdinova, S.Nazarov, U.Muradov, T.Toshpulatov, Sh.Fayziev, Sh.Fayziev. Phraseological Units with Colour

⁶ Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 2022-7 (2), 84-87.

⁷ Yusupov O.N. Subtleties Of Literary Translation. İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online 4 (4), 1917-199



Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People. *LINGUISTICA ANTVERPIENSIA*, 2021. P. 719-731

6 Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. *Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe* 2022-7 (2), 84-87.

7 Yusupov O.N. Subtleties Of Literary Translation. *İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online* 4 (4), 1917-199